

Alisher Egamberdiev
Teacher,
National University of
Uzbekistan,
Tashkent, Uzbekistan

Alisher Egamberdiyev
O'qituvchi,
O'zbekiston
Milliy universiteti,
Toshkent, O'zbekiston

Алишер Эгамбердиев
Преподаватель,
Национальный
университет Узбекистана,
Ташкент, Узбекистан

DAVLAT TILINING QADIMDAN ISLIMGACHA BO'LGAN DAVRI TARIXI

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada o'zbek davlatchiligi tarixida davlat tilining qadimdan islomgacha bo'lgan davrdagi tarixi yoritilgan. Tarixiy taraqqiyot tajribasidan kelib chiqqan holda muayyan tilni davlat tili deb belgilash tamoyillari tahlil qilingan. "Avesto" davri davlatchiligi, Turonda ahamoniylar bosqiniga qadar bo'lgan yozuv madaniyati, ahamoniylar davrida rasmiy til sifatida xizmat qilgan oromiy tili haqida ma'lumot berilgan. Yunon-Makedon va Yunon-Baqtriya davrida boshqaruv ishlari yunon tilida olib borilgani, Kushon imperiyasida esa baqtriya tili umumdavlat tili maqomiga ega bo'lganligi qayd etilgan. Bundan tashqari, milodning arablar istilosiga qadar bo'lgan davrida Turonda hukm surgan lisoniy vaziyat va til siyosati tahlil qilingan.

KALIT SO'ZLAR: til, davlatchilik, Turon, yozuv, davlat tili, rasmiy til, "Avesto" tili, oromiy tili, yunon tili, baqtriya tili, xorazm tili, turkiy yozuv, so'g'd tili.

ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЯЗЫКА ОТ ДРЕВНИХ ВРЕМЕН ДО ИСЛАМА

АННОТАЦИЯ: В данной статье описывается история государственного языка в истории узбекской государственности с древнейших времен до ислама. На основе опыта исторического развития проанализированы принципы определения конкретного языка в качестве государственного. Даны сведения о государственности периода «Авесты», письменной культуре в Туране до нашествия Ахеменидов, арамейском языке, который служил официальным языком в период Ахеменидов. Отмечается, что в греко-македонский и греко-бактрийский периоды управление велось на греческом языке, а в Кушанской империи бактрийский язык имел статус национального языка. Кроме того, была проанализирована языковая ситуация и языковая политика, царившая в Туране до арабского завоевания.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: язык, государственность, Туран, письменность, государственный язык, официальный язык, язык «Авесты», арамейский язык, греческий

язык, бактрийский язык, хорезмийский язык, тюркская письменность, согдийский язык.

HISTORY OF THE STATE LANGUAGE FROM ANCIENT TIMES TO ISLAM

ABSTRACT: This article describes the history of the state language in the history of Uzbek statehood from ancient times to Islam. Based on the experience of historical development, the principles of defining a specific language as the state language have been analyzed. The statehood of the "Avesta" period, the written culture in Turan before the Achaemenid invasion, and the Aramaic language, which served as the official language during the Achaemenid period, are given information. It is noted that during the Greco-Macedonian and Greco-Bactrian periods, administration was conducted in Greek, and in the Kushan Empire, the Bactrian language had the status of the national language. In addition, the linguistic situation and language policy that prevailed in Turan before the Arab conquest were analyzed.

KEY WORDS: language, statehood, Turan, script, state language, official language, "Avesta" language, Aramaic language, Greek language, Bactrian language, Khorezm language, Turkic script, Sogdian language.

1. KIRISH

Har bir xalqning tili uning muhim alomati hisoblanadi. Til ko'pincha xalqlar shakllanishining sharti yoki etnogenezining yakuniy bosqichi sifatida qaraladi. Til insonning ajdodlari va avlodlari orasidagi vorisilik, aloqadorlik vazifasini bajaradi. Inson nasliga xos barcha genetik xususiyatlar, axloqiy normalar, uning faoliyatini boshqaruvchi dasturlar xuddi shu til orqali ajdodlardan avlodlarga uzatiladi [1]. Ma'lum bir xalqning tashkil topishida til birligi muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin ayrim hollarda ba'zi etnoslar turli tillarda so'zlashuvchi xalqlardan ham tashkil topishi mumkin. Bunday vaziyatlarda til etnosga xos bo'lgan muhim xususiyat – etnik mansublik belgisi rolini bajaradi. Shuni ham unutmash lozimki, turli etnoslar bir tilda so'zlashishlari ham mumkin [2]. Til tarixan elat va qabilalarni birlashtirgan eng muhim vositadir. Qadimgi kishilar uchun til shunchaki belgi, ifoda vositasi emas edi. Ular

tilda qandaydir ilohiy kuch, ta'sir mavjud deb hisoblaganlar. Eng muhimi, til kishilarni ma'naviy-ruhiy va etnik birlashtirish vositasi bo'lib xizmat qilgan. Shubhasiz, avvalo, og'zaki so'zlashuv tili yuzaga kelgan. Qadimgi xorazmliklar, baqtriyaliklar, parfiyaliklar, marg'iyonaliklar, so'g'dliklar, chochliklar, toxaristonliklar o'ziga xos so'zlashuv tillariga ega bo'lganlar [3].

Til ijtimoiy hodisa sifatida zamon va makon munosabatlarini o'zida aks ettiradi. Tarixan ulkan hududlarda yashagan turli xalqlarning tillari bir-birlariga ta'sir o'tkazgan. Muayyan davrga xos til jamiyatdagi turli tabaqa vakillari nutqida turlicha namoyon bo'ladi. Tilning faoliyat ekanligi uni insonning boshqa faoliyatlari bilan bog'lab o'rganishni taqozo etadi [4]. Mustahkam davlatchilik an'alarini yaratgan, etnik tarixining eng yuqori cho'qqisi, kamolot bosqichiga ko'tarilgan xalqning davlati millat nomi bilan yuritiladi, aniq hududiy chegarada muomalada

bo'lgan umumxalq-millat tili esa davlat tili maqomi darajasiga ko'tariladi [5].

2. ASOSIY QISM

Tarixiy taraqqiyot tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat tili asosan uch yo'l bilan belgilanadi. Dastlabki holatda hech qaysi til davlat tili deb e'lon qilinmasa-da, tarixiy an'ana asosida ushbu davlat hududida istiqomat qiluvchi barcha xalqlar mavjud tillardan birini umumtil (davlat tili, rasmiy til) deb tan oladilar, bunday til, ko'pincha, shu davlat aholisining ko'pchiligini tashkil qiluvchi eng yirik yoki hukmron millatning tili bo'ladi [6]. Ikkinchi holatda xalqaro yoki jahon tillaridan biri (yoki ushbu xalqni tobe etgan mustamlakachi mamlakatning tili) hukumat, davlat rahbari, oliy vakillik organi yoki boshqa rahbar organlar tomonidan davlatning rasmiy tili deb e'lon qilinadi. Uchinchi holatda esa davlat tili muayyan tilning qonun chiqaruvchi organ yoki davlat rahbari tomonidan jamiyat hayotining barcha sohalarida qo'llanilishi shart deb e'lon qilinishi orqali (masalan, davlat tili to'g'risida qonun qabul qilish yo'li bilan) belgilanadi. Uch ming yillik tarixga ega o'zbek davlatchiligining muayyan tarixiy bosqichlarida davlat tilini belgilashda yuqoridagi uch yo'ldan ham foydalanilgan.

O'zbek davlatchiligi tarixining dastlabki yozma manbasi hisoblangan "Avesto"da Turonning turli hududlarida yashab, sharqiy eroniy tillarda so'zlashuvchi qabilalar va ularning yurtlari (mamlakatlari) haqidagi ilk xabarlar beriladi [7]. U so'g'd va baqtriya tiliga yaqin, yunon yozuvi bilan parfiya yozuvining isloh qilinganida yozilgan [8]. "Avesto"ning ilk matnlari ("goh"lar) Zardusht tomonidan badiha usulida omma oldida qiroat qilingani uchun uning yozma nusxalari bo'lganligini inkor etuvchilar ham bor. Ularning fikricha, yozuv qadimgi eronliklar tasavvurida yovuzlik xudosi Anxro-Manyu tomonidan kashf etilgan

bo'lib, shu sababli muqaddas so'zlarni yozish ta'qiqlangan, uzoq vaqt davomida kohinlar tomonidan yod olinib, avlod-dan-avlodga og'zaki ravishda o'tib kelgan. Asrlar o'tib asl matn bilan zardushtiy jamoa tili farq qila boshlagach "Avesto"ni yozib olish zarur bo'lib qoldi. Chunki uning so'zlari ilohiy hisoblanib, talaffuzi buzilmasligi talab qilinardi. "Avesto" tili murakkab tovush tizimiga ega bo'lganligi sababli uni yozib olishga o'z davri uchun o'ta murakkab, lekin aniq fonetik ifoda eta olish darajasida 51 belgidan iborat alifbe yaratilgan. Bu yozuv "Avesto"dan boshqa biror til uchun ishlatilmagan.

"Avesto"da qayd etilishicha, davlatni muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va huquqiy masalalarni o'zida mujassamlashtirgan shoh – "kavi" boshqargan bo'lib, uning hukmdorlik huquqi belgilanishida saltanatning ilohiyligini ta'minlovchi ilk davlatchilik konsepsiyasi – "far" ("Avesto" tilida "xvarno") tamoyili qonuniy asos sifatida qabul qilingan [9]. Bunda oliy dunyoviy hokimiyat sulolaning bir vakilidan ikkinchisiga o'tishida muayyan ilohiy belgi – jonivor, qush yoki yog'du shu'las hukmdorlikka tanlangan kishini ajratib ko'rsatishi shohlikka munosiblik belgisini ifoda etgan [10]. "Avesto"dagi shu kabi ma'lumotlar o'zbek davlatchiligining boshlang'ich davridagi davlat tuzumi va boshqaruvi haqida ma'lumot beradi. "Avesto" davri davlatchiligida qaysi til davlat tili sifatida xizmat qilganligi, boshqaruv ishlari qaysi til va yozuvda yuritilgani haqida aniq xulosalar mavjud bo'lmasa-da, "Avesto"da tilga olingan boshqaruv tizimi va tuzilmalari ayni bir tili yordamida idora etilgani shubhasiz.

Shu o'rinda qayd etish joizki, Turonda yozuv madaniyati "Avesto" yaratilishidan ancha oldin yuzaga kelgan. Sopollitepa, Jarqo'ton va G'oz yodgorliklari topilmalariga tayanib hozirgi O'zbekiston hududida

tamaddunning asosiy belgisi bo'lgan yozuv (piktografik belgili yozuv) bugungi kundan to'rt ming yillar avval, bronza davrida yaratilganligini qayd etish mumkin [11]. Jumladan, G'oz piktografik yozuvining topilishi turonliklarning ahamoniylar davrigacha o'z yozuv usuliga ega bo'lganliklarini isbotlaydi. Turonda arab yozuviga qadar harflarga asoslangan yunon, oromiy va ushbu yozuv asosida paydo bo'lgan qadimgi baqtriya, xorazm, so'g'd yozuvlaridan foydalanilgan. Yozma parchalari saqlanib qolgan qadimgi so'g'dlar, xorazmliklar, baqtriyaliklar tili sharqiy eroniy tillar guruhiga oidligi aniqlangan. Ular sharqiy eroniy tillar guruhining turli shevalarida gapirganlar. Bundan tashqari, qadimgi Turon saklari va Shimoliy Qoradengizbo'yi skiflari ham sharqiy eroniy tillar guruhi shevalarida so'zlashganlari taxmin qilinadi [12].

Miloddan avvalgi VI – IV asrlarda Qadimgi Baqtriya, So'g'd va Xorazmni ham o'z tarkibida tutib turgan Ahamoniylar imperiyasida oromiy tili ma'muriy boshqaruv va ish yuritish tili bo'lgan [13]. Natijada Turon hududida tuzilgan viloyatlar (satrapliklar)da ham rasmiy ish yuritish ishlari mazkur tilda olib borilgan. Oromiy tili muomalaning asosiy vositasi, ma'muriy boshqaruv va idora ishlari yuritiladigan tilga aylangan [14]. Turonda oromiy kotib parfiyalik, baqtriyalik, so'g'dlik va xorazmlik amaldorlarning o'z mahalliy tilida bayon etgan og'zaki ma'muriy va boshqa ishlarga oid fikrlarini oromiy tiliga o'girib, shu tilda rasmiylashtirgan [15]. Mahalliy tillarning oromiy tiliga ta'siri kuchayib, mahalliy ma'muriy atama va iboralar oromiy tiliga kirib borgan.

Ahamoniylar imperiyasi Makedoniyalik Aleksandr boshchiligidagi yunon-makedon qo'shinlari tomonidan egallanganidan so'ng ham idora ishlarining oromiy tilida olib

borilishi davom etgan, shu birga davlat ishlarini yuritishda qadimgi yunon tili va yozuvidan ham foydalanilgan [16]. Miloddan avvalgi III asr o'rtalarida yuzaga kelgan Yunon-Baqtriyada davlatning rasmiy boshqaruvi yunon tilida yuritilgan. Buni Oyxonim yodgorligidan topilgan ko'plab qadimgi yunon yozuvlari namunalari ham tasdiqlaydi. Yunon tilidagi bu yozuvlar orasida baqtriyalik amaldorlarning ismlari ham qayd etilgan. Yunon-Baqtriyada yunon tili va yozuvi bilan bir qatorda mahalliy Baqtriya aholisi bilan bog'liq ma'muriy idora ishlarini yurgizishda miloddan avvalgi II asrda yuzaga kelgan oromiy-baqtriya yozuvidan ham foydalanilgan.

Milodiy I asrga kelib turli tillarda so'zlashuvchi, turli diniy e'tiqod va an'analarga ega bo'lgan aholini o'zida mujassamlashtirgan Kushon yuzaga keldi. Kushon tangalarida dastlabki davrlarda ikki tilli yozuvlar bitilgan bo'lib, birinchi yozuv yunoncha, ikkinchisi kushon yozuvi bo'lgan. Tangalarning orqa tomonida esa hukmdorning unvoni, ismi va u sig'inadigan ma'budning nomi qadimgi hind yozuvi kxaroshtida yozilgan. Kanishka hukmronligi davridan boshlab tangalarda ikki xil yozuv o'rniga dastlab yunoncha, ko'p vaqt o'tmay yunoncha o'rniga baqtriya yozuvi paydo bo'ldi [17]. Keyingi hukmdorlar davrida tangalarga faqat baqtriya yozuvida yozish yo'lga qo'yildi [18]. Kanishka butun davlat aholisi manfaatlaridan kelib chiqib, baqtriya tilining umumdavlat tili sifatida tan olinishiga muvaffaq bo'ldi [19]. Podsho ismlar davlat, ya'ni baqtriya tiliga moslab o'zgartirilishiga erishdi.

Xorazm tili eron tillarining sharqiy guruhiga mansub bo'lgan. Milodiy III asrda Kushon imperiyasidan mustaqillikka erishgan Xorazm rivojlanish bosqichiga kiradi. Ammo arxeologik manbalarga tayanilsa, bu davrda

xorazm tili sust taraqqiy etgan. Xorazmda oromiy yozuvi asosidagi yozuv tizimi ham mavjud edi. Parfiya tiliga va ilk so'g'd tiliga yaqin bo'lgan xorazm tiliga mansub eng qadimgi yozma yodgorlik Qo'yqirilgan qal'adan topilgan ko'zadagi birgina "aspabarak" ("chavandoz") so'zi bitilgan yozuvdir. Mazkur yozuv miloddan avvalgi IV – III asrlarga taalluqli.

Farg'ona davlatida yashagan xalqlar asosan turkiylar bo'lib, turkiy tilda gaplashganlar [20]. Kushon va Qang' uchun Xan imperiyasidan qalqon hudud vazifasini bajargan Farg'ona davlatidan to Parfiyaga qadar bo'lgan yerlarda, garchi bir qancha shevalar mavjud bo'lsa-da, aholining tili bir-biriga yaqin va tushunarli bo'lgan [21]. Elshunos akademik Karim Shoniyozovning yozishicha, Qang' davlatining aholisi yagona tilda so'zlashuvchi etnos bo'lmagan. Uning chorvadorlari, xususan qang'ar, usun va xunlar turkiy tilda, o'troq qishloq va shaharlarda esa qadimgi so'g'd va xorazmcha so'zlashganlar. Mazkur qo'sh tilli nufus asrlar osha yonmayon yashab, muttasil iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lganlar. Kultube yozuvlariga tayanib shuni qayd etish mumkinki, saklar tomonidan asos solingan Qang'da davlat ishlari, asosan, sharqiy eron tilida olib borilgan. Konfedativ boshqaruv shakliga ega bo'lgan mazkur davlatda sharqiy eron tilidan tashqari boshqa tillar ham muomalada bo'lgan [22].

Milodiy 383-yildan boshlab Baqtriya yozma manbalarda Toxariston deb yuritila boshlagan. V asrda Toxaristonda, shuningdek, Turonning katta qismida o'z hukmronligini o'rnatgan eftaliylarning rasmiy yozuvi baqtriya yozuvi hisoblangan [23]. Ammo eftaliylar qaysi tilda so'zlashganlari ma'lum emas, biroq yozma manbalar ma'lumotlariga ko'ra eftaliylar tili qadimgi turkiy tildan farq qilgan [24]. Eftaliy hukmdorlarning Toxaristonda

zarb etilgan tangalaridagi yozuvlar asosan baqtriya tili va yozuvida bitilgan. V – VIII asrlarda Toxaristonda baqtriya yozuvi keng tarqalgan. Eftaliylar 563 – 567-yillar oralig'ida turkiylar va sosoniylar qo'shini tomonidan tormor etilgach, turkiy yozuv keng tarqalgan.

Ma'lumki, qadimgi yunon mualliflarining bergan ma'lumotlariga ko'ra, antik davrda quyi Sirdaryo havzasining sharqiy sohillari turkiy tilli ko'chmanchi chorvador qabilalar keng tarqalgan hududlar hisoblanib, saklarning Yaksartorti urug'-aymoqlarini so'g'diylardan Yaksart (Sirdaryo) daryosi ajratib turgan. Ilk o'rta asrlarga kelib esa, so'nggi bronza davridan boshlangan turkiy tilli Yaksartorti qabila va qavmlarning O'rta Osiyoning ichki hududlariga to'xtovsiz kirib kelishi va ularning Amudaryo o'rta havzalarigacha keng tarqalishi tufayli Sirdaryo quyi havzalaridan to Amudaryo o'rta havzalarigacha cho'zilgan geografik kenglikda turkiy tilli etnik qatlam qalinlashib, bu zamin Turkiston deb atala boshlandi, endi turkiy va eroniy tillar chegarasi Amudaryo bo'lib qolgan [25].

Milodiy VII – VIII asrlarda So'g'dning ba'zi hukmdorlari turkiylardan bo'lib, devon ishlari turkiy tilda ham yuritilgan. Xitoy yilnomalarida qayd etilishicha, bu davrda Afrosiyob (Samarqand)da "Adolat uyi" nomli ibodatxona mavjud bo'lgan. Mazkur ibodatxonada turkiy tilda bitilgan qonunlar to'plami saqlangan bo'lib, jinoyat qilganlar shu qonunlar to'plami asosida sud qilingan. Samarqand hukmdorlari davlatni oltindan yasalgan taxtda o'tirib boshqarganlar [26]. Shuni ham qayd etish joizki, mazkur qonunlar asosida nikoh shartnomalari ham tuzilgan bo'lib, turk aslzodasi Uttegin va so'g'd aslzoda ayoli Do'g'dug'uncha o'rtasidagi teng huquqli nikoh bitimi mazkur qonunlar to'plami asosida tuzilgan.

Amerikalik xitoyshunos olim E. Sheferning qayd etishicha, soʻgʻd tili ilk oʻrta asrlarda Buyuk ipak yoʻlining quruqlikdagi asosiy yoʻllarida savdogarlarning xalqaro soʻzlashuv tili mavqeyiga erishgan [27]. Buning asosiy sababi shundaki, soʻgʻdlik savdogarlar Sharq va Gʻarb mamlakatlari bilan olib borilgan savdo-iqtisodiy aloqalarda muhim oʻrin tutib, faol ishtirok etganlar. Soʻgʻdiylarning savdo faoliyati Buyuk ipak yoʻlining Samarqanddan Chanʼangacha boʻlgan butun Sharqiy yoʻnalishida yuzaga kelgan boʻlib, soʻgʻd tili esa shu yoʻl yoqasida hayot kechirayotgan barcha xalqlar uchun “lingva tvanca” boʻlib qolgan [28]. Sharq va gʻarblilik savdogarlar, karvonboshilar bir-birlari bilan soʻgʻd tili orqali muloqot qilganlar. Shu tariqa soʻgʻd tili va yozuvi Buyuk ipak yoʻli boʻylab keng miqyosda qoʻllanilgan. VIII asrda Soʻgʻdda zarb etilgan tangalarning yozuvi qoʻshaloq – soʻgʻd va xitoy tillarida yozilganidan Buyuk ipak yoʻli savdosida xitoyliklar soʻgʻd tangalarini tan olgani ayonlashadi [29].

Soʻgʻdiylar uch turdagi yozuvdan, jumladan, bevosita soʻgʻd yozuvi, manixey va suriya yozuvlaridan foydalanganlar [30]. Mazkur davrda oʻtroq aholining katta qismi soʻgʻd tilida muloqot qilar edi. Ushbu til va uning yozuvi Yettisuv va Fargʻonadan oʻtib Sharqiy Turkistonga qadar yetib borgan. Soʻgʻd yozuvining ayniqsa Samarqand usuli keng yoyilgan. Turk va uygʻur xoqonlari oʻzlari uchun muhim boʻlgan toshbitiklarni soʻgʻd tilida yozib qoldirganliklari ashinaliyalar davrida ham soʻgʻd yozuvi va tilning xalqaro til sifatidagi mavqeyi baland boʻlganini namoyon etadi [31]. Moʻgʻulistonning Bugʻut manzilgohidan topilgan VI asr oxirlariga oid soʻgʻdcha toshlavha misol boʻladi.

Bu davrda Choch oʻlkasi Turk xoqonligiga tobe boʻlishiga qaramay, oʻzining tili, yozuvi va madaniyatini saqlagan edi.

Chochda soʻgʻd tilining shevasi rasmiy til sifatida yuritilib, davlat ishlariga oid hujjat, chaqa va tangalar zarb etishda ashinaliyalar sulolasi xoqonlari va choch hukmdorlarining lavozimlari hamda nomlari, hukmdorlar nomidan bitiladigan yozuvlar soʻgʻd yozuvlarida ifodalangan [32]. VII – VIII asrlarda ashinaliyalar sulolasi xoqonlari ham, Choch hukmdorlari ham qoʻshni davlatlar bilan rasmiy yozishmalarni soʻgʻd tilida olib borishgan [33]. Soʻgʻd tilida chochliklardan tashqari fargʻonaliklar ham soʻzlashgan [34]. Turkiy muhit va turkiy tilning ahamiyati ham oshib borgan. Toxariston aholisining koʻp qismi baqtriy tilli boʻlgan [35]. Soʻgʻd tili Tarim havzasi va Yettisuvda XII asrgacha kundalik muomala tili darajasida saqlanib qolgan [36].

Milodiy V – VI asrlardan boshlab xorazmliklarning har xil xalq va qabilalar bilan aralashishi, koʻp sonli turkiy qabilalarning Xorazmda oʻtroqlashib qolishi xorazm tilining yoʻqolib borishiga, bu yerda turkiy tilning hukmron tilga aylanib borishiga sabab boʻldi. Xorazmda ikkitillilik vujudga kelib, xorazm tili hamda turkiy tilda soʻzlashuvchi aholi istiqomad qildi. Xorazmda qadimgi xorazm tili oʻrnida XI – XII asrlarda turkiy til alohida elat tili sifatida shakllandi [37]. Bu yerda xorazm tili XIII – XIV asrlargacha saqlandi, aniqroq qilib aytganda, XIV asrning oʻrtalarida va oxirida Shimoliy Xorazmda ham, Janubiy Xorazmda ham xorazm tilini biladigan kishilar mavjud edi [38].

3. XULOSA

Oʻzbek davlatchiligi tarixining dastlabki yozma manbasi hisoblangan “Avesto”da Turonning turli hududlarida yashab, sharqiy eroniy tillarda soʻzlashuvchi qabilalar va ularning yurtlar haqidagi ilk xabarlar beriladi. Mazkur xabarlar hozirgi Oʻzbekiston hududidagi ilk boshqaruv asoslari va

davlatchilik haqida muhim ma'lumotlarni o'zida mujassam etadi. Bugungi kundan to'rt ming yillar avval, bronza davridayoq yozuv madaniyatiga ega bo'lgan ajdodlarimiz Turonda arab yozuviga qadar harflarga asoslangan yunon, oromiy va ushbu yozuv asosida paydo bo'lgan qadimgi baqtriya, xorazm, so'g'd yozuvlaridan foydalanganlar.

Miloddan avvalgi VI – IV asrlarda Qadimgi Baqtriya, So'g'd va Xorazmni ham o'z tarkibida tutib turgan Ahamoniylar imperiyasida oromiy tili ma'muriy boshqaruv va ish yuritish tili bo'lgan. Makedoniyalik Aleksandr istilosidan so'ng ham idora ishlarining oromiy tilida olib borilishi davom etgan. Bundan tashqari, davlat ishlarini yuritishda qadimgi yunon tili va yozuvidan ham foydalanilgan. Yunon-Baqtriyada davlatning rasmiy boshqaruvi ham yunon tilida yuritilgan. Kushon podshohligida Kanishka hukmronligi davriga qadar bir nechta tillardan foydalanishgan. Mazkur jarayonga chek qo'ygan Kanishka baqtriya tilining umumdavlat tili sifatida tan olinishiga erishgan.

Olimlarning tildan foydalanish sohasi bo'yicha olib borgan tadqiqotlariga ko'ra miloddan avvalgi 50-yilda Samarqandda rasmiy yozuv sifatida oromiy yozuvidan foydalanilgan bo'lsa, rasmiy muomala tili sifatida so'g'd yoki kushon-baqtriya tili qo'llangan. Bu davrda avesto tili yoki sanskrit tilidan diniy til sifatida foydalanilgan. Tijorat tili sifatida esa so'g'd tili xizmat qilgan.

Turon hududida yashagan qadimgi ajdodlarimiz tillaridan biri – xorazm tili eron tillarining sharqiy guruhiga mansub bo'lib, Xorazmda oromiy yozuvi asosidagi yozuv tizimi ham mavjud edi. Qang'da davlat ishlari, asosan, sharqiy eron tilida olib borilgan. Eftaliylarning rasmiy yozuvi baqtriya yozuvi hisoblangan, ammo eftaliylar qaysi tilda

so'zlashganlari ma'lum emas. So'g'd tili ilk o'rta asrlarda Buyuk ipak yo'lining quruqlikdagi asosiy yo'llarida savdogarlarning xalqaro so'zlashuv tili mavqeyiga erishgan. Ashinaliyar davrida ham so'g'd yozuvi va tilning xalqaro til sifatidagi mavqeyi baland bo'lgan.

ADABIYOTLAR

1. Яхшилик Ж.Я., Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя – тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Фан, 2017. 201-б.
2. Аширов А., Атаджанов Ш. Этнология. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. 75-б.
3. Нишанова О.Ж. Этномаданият: тушунчаси ва моҳияти // ЎзМУ хабарлари. 2014. № 1/1-сон. 131-б.
4. Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнаари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи. – Тошкент: Навоий университети, 2019. 4-б.
5. Аширов А., Атаджанов Ш. Этнология. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. 75-б.
6. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at / Mualliflar: M. Abdullayev, M. Abdullayeva va boshq.; R. Ro'ziyev va Q. Xonazarov umumiy tahririda. To'ldirilgan uchinchi nashri. – Toshkent: Sharq, 2009. 90-bet.
7. Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда ибтидоий жамоа тузуми ва илк давлатчилик тарихи. – Тошкент: LESSON PRESS, 2019. 230-б.
8. Бобоев Х., Норматов К. Миллий давлатчилик ҳақида. – Тошкент: Ёзувчи, 1999. 10-б.

9. Бобоев Ҳ., Дўстжонов Т., Ҳасанов С. “Авесто” – Шарқ халқларининг бебаҳо ёдгорлиги. – Тошкент: Тошкент молия институти, 2004. 15-б.
10. Бозорбоева Ш.М. “Авесто”да илк давлатчилик ва жамиятни бошқариш масалалари // ЎзМУ хабарлари. 2013. Махсус сон. 262-б.
11. Чориев З., Шайдуллаев Ш., Аннаев Т. Ўзбекистон ҳудудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. 64-б.
12. Сулаймонов Р. Нахшаб – унутилган тамаддун сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2004. 9-б.
13. Сағдуллаев А.С. Поход Александра Македонского в Согдиану. – Ташкент: Узбекистан, 2009. – С. 181.
14. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдулаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихилан лавҳалар. – Тошкент: Адолат, 2001. 100-б.
15. Чориев З., Шайдуллаев Ш., Аннаев Т. Ўзбекистон ҳудудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. 35-б.
16. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдулаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихилан лавҳалар. – Тошкент: Адолат, 2001. 102-б.
17. Пидаев Ш. Сирли кушонлар салтанати. – Тошкент: Фан, 1990. 8-б.
18. Бердимуродов А., Индиаминова Ш. Буюк ипак йўли: қитъалар ва асрлар оша. – Тошкент: O‘zbekiston, 2017. 248-б.
19. Чориев З., Шайдуллаев Ш., Аннаев Т. Ўзбекистон ҳудудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. 44-б.
20. Бобоев Ҳ. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Биринчи китоб. – Тошкент: Фан, 2004. 83-б.
21. Бийкузиев А.А. Антик даврда номадлар ўтроқлашуви жараёнининг Кушон, Қанғ ва Хунн давлатларига таъсири тарихи // ЎзМУ хабарлари. 2015. № 1/1-сон. 12-б.
22. Ўша ерда.
23. Чориев З., Шайдуллаев Ш., Аннаев Т. Ўзбекистон ҳудудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. 49 – 50-б.
24. Ртвеладзе Э.В., Сағдуллаев А.С. Памятники минувших веков. – Ташкент: Узбекистан, 1986. 92-б.
25. Джураев И.Н. Ўзбек халқи этногенезининг илк босқичи. – Гулистон: Зиё нашр-матбаа, 2021. 135-б.
26. Бердимуродов А., Индиаминова Ш. Буюк ипак йўли: қитъалар ва асрлар оша. – Тошкент: O‘zbekiston, 2017. 56-б.
27. Шефер Э. Золотые персики Самарканда. Книга о чужеземных диковинах в империи Тан. – Москва: ГРВЛ, 1981. С. 27.
28. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х. Ўзбекистон ҳудудида энг қадимги даврда дипломатик муносабатларнинг ривожланиши. – Тошкент: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2001. 26-б.
29. Кароматов Ҳ. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. – Тошкент: Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, 2008. 476-б.
30. Чориев З., Шайдуллаев Ш., Аннаев Т. Ўзбекистон ҳудудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. 59-б.

31. Бердимуродов А., Индиаминова Ш. Буюк ипак йўли: қитъалар ва асрлар оша. – Тошкент: O‘zbekiston, 2017. 370-б.
32. Муҳаммаджонов А. Қадимги Тошкент (тарихий ва археологик лавҳалар). – Тошкент: Шарқ, 2002. 29-б.
33. Алимова Д.А., Филанович М.И. Тошкент тарихи (қадимги даврдан бугунги кунгача). Қайта ишланган иккинчи нашри. – Тошкент: ART FLEX, 2009. 34-б.
34. Вызго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии. Историчес-кие очерки. – Москва: Музыка, 1980. С. 60.
35. Норматов Ш.М. Илк ўрта асрлар даври Ўрта Осиёнинг жанубида миграция ва этномаданий жараёнлар. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Қарши, 2021. 17-б.
36. Кароматов Ҳ. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. – Тошкент: Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, 2008. 512-б.
37. Абдиримов Б. Хоразмийлар изини излаб: VIII – XIII асрлар Евроосиё хуудларида кечган сиёсий ва этник жараёнларда хоразмликларнинг ўрни. – Тошкент: Sharq ma’rifati, 2021. 101-б.
38. Дўсимов З.Д., Тиллаева М.Б. Хоразм ономастикасининг шаклланиши ва ва “Авесто”. – Тошкент: Фан, 2010. 25-б.